

BANK TIZIMINING ISHLASH MEKANIZMI VA UNING IQTISODIYOTDAGI VAZIFALARI

International school of finance technology institut talabasi.

Abdivapoyeva Sanobar Jasur qizi.

E-mail.abdivapoyevasanobar@gmail.com

Annotatsiya: Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. U pul mablag'larini boshqarish, tartibga solish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Bank nafaqat pul saqlash joyi, balki investitsiya va iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotda asosiy moliyaviy vositachi bo'lib, umumiy iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi ularning samarali faoliyatiga bog'liq. Shu sababli bank tizimi, uning tuzilishi va vazifalari mamlakat katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, universal banklar, bank investitsiyalari, inflyatsiya, bank tizimi, pul krediti, depozitlar

Asosiy qismi: Bank tizimi- bu mamlakatlarda pul aylanib turishi, kreditlash va hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi muassasalar hisoblanadi. Banklarning paydo bo'lishining pul-tovar munosabatlarining rivojlanishidir. Bank tizimi iqtisodiyotning muhim tayanchi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan bank tizimini yanada takomillashtirib, aholiga juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bank tizimi iqtisodiyotni o'sishini tezlashtiradi, inflyatsiyani nazorat qilishga, investitsiyalarni jalb qilishda va tadbirkorlarni rivojlantirishga katta yordam beradi. Kreditlashda va investitsiyalashda asosan yangi bizneslar ochishga, ishlab chiqarish kengayishiga, ish o'rinlari yaratilishiga yordam beradi. Bank naqd va naqd pulsiz aylanishini ta'minlaydi. Bank tizimining asosiy vazifalari:

Pul mablag'larni jamlaydi va saqlaydi

Oson kredit olishga yordam beradi

To'lov va hisob-kitoblarni amalga oshirishda

Investitsiyalarni moliyalashtirishdi.

Markaziy bankda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21-yilligiga bag'ishlangan hamda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarining bajarilishiga bag'ishlangan tantanali tadbir tashkil etiladi. Bank tizimi-bu banklar majmuasi hamda ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, me'yoriy hujjatlar va nazorat mexanizmlarida iborat tizimdir. Bu tizim orqali pul mablag'lari yig'iladi, taqsimlanadi va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiriladi. Bank tizimining tuzilishi. Ko'pgina davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham bank tizimi ikki pog'onali shaklda tashkil etilgan:

1.Markaziy bank bo'lib, u pul kredit siyosatini yuritadi, milliy valyutani muomalaga chiqaradi va barcha banklar faoliyatini nazorat qiladi.

2.Tijorat banklari-aholi va tadbirkorlarga turli moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi.

Bank tizimining funksiyalari:

Bank tizimi iqtisodiyotda bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

1. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish-banklar mijozlarga depozit hisob varaqalari ochish, kredit ajratish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, to'lovlarni qabul qilish va xizmatlarni taqdim etish. Bu xizmatlar kundalik iqtisodiy faoliyatini yuritishda muhim ahamiyatga ega.

2. Jamg'armalarni safarbar etish-aholi va korxonalarining vaqtincha bo'sh pul mablag'lari banklar orqali yig'iladi. Ushbu mablag'larini keyinchalik kredit sifatida iqtisodiyotga qayta yo'naltiriladi.

3. Kapitalni taqsimalash-banklar yig'ilgan mablag'larni samarali loyihalarga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiya sifatida ajratadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

4. Pul muomalasini tartibga solish-Markaziy bank orqali pul massasi nazorat qilinadi, inflyatsiya darajasi boshqariladi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Markaziy bank-mamlakat moliya tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, unga pul belgilarini chiqarish va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish vakolati berilgan. U "banklar banki"sifatida faoliyat yuritib, pul muomalasini tartibga solish hamda davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda hukumatga ko'maklashadi. Markaziy bankning asosiy vazifalariga pul emissiyasini amalga oshirish, davlatning oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish va saqlash, bank tizimini kredit bilan ta'minlash, hukumat hamda tijorat banklari hisob varaqalarini yuritish kiradi. Dunyo miqyosida Angliya banki, AQSH Federal zaxira tizimi, Bundesbank hamda Yaponiya banki kabi markaziy banklar eng yirik va nufuzli moliya institutlari sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa

Bank iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi, u pul aylanishi ta'minlaydi, kreditlash orqali rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi va moliyaviy barqarorlikni taminlaydi. Banklar nafaqat pulni saqlaydi, balki uni iqtisodiyotda faol ishlashini ham ta'minlab beradi. Zamonaviy sharoitda bank tizimini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xizmat sifatida oshirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Banklar orqali jamiyatdagi bo'sh pul resurslari yig'ilib, ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihalariga yo'naltiriladi. Bank tizimi mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda bank tizimi nafaqat an'anaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Shuningdek, bank tizimining barqarorligi investitsiya muhitiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank tizimi jamg'armalarini samarali taqsimalash orqali iqtisodiyotdning turli sohalarini

rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, bank tizimi to'lovlari va hisob-kitoblarning tez, xavfsiz va qulay amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bank tizimi iqtisodiyotning barqarorligi, o'sishi va rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdullayev, A. M (2021). Banking system and its role in economic development. Tashkent: *Iqtisodiyot Publishing House*.
2. Ahmedov, B. A. (2020). Improving mechanisms of bank lending to small businesses. *Finance and Banking Journal of Uzbekistan*, 4(2), 45-52.
3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report on banking sector development. Toshkent*.
4. Ismoilov, S. R. (2019). Bank intermediation and financial support of entrepreneurship. *Economic Review*, 6(1), 78-85.
5. Karimov, U. T (2022). Digital banking services as a factor of SME development. *Journal of Innovative Economy*, 3(4), 33-44.
6. Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. (2022). Report on small and medium-sized business development. Tashkent.
7. Nazarov, D. K. (2018). The role of commercial banks in financing entrepreneurship. *Uzbek Journal of Economics*, 2(3).91-98.
8. Tursunov, B. O. (2021). Institutional factors of banking sector efficiency. *Journal of Economic Reforms*, 4(1).24-31.
9. Yuldashev, M. R. (2022). Bank innovations and their impact on SME growth. *Finance and Credit*, 8(3), 67-74.
10. Olimjonov, F. M. (2021). Risk management in bank lending to SMEs. *Banking Bulletin*, 5(2), 56-63